

TARIX

1. Bronza davriga oid Sopollitepa manzilgohi Surxondaryoning qaysi tumanida joylashgan?
A) Muzrabod B) Boysun C) Termiz
D) Sho'rchi
2. Qadimda Buyuk Ipak Yo'li orqali Xitoyga So'g'diyona (a) va Farg'ona (b) dan nimalar olib borilgan?
1. jun gazlama; 2. tuyalar; 3. gilam; 4. zotli otlar;
5. zeb-ziynatlar
A) a - 1, 2, 4, b - 3, 5 B) a - 1, 3, 5, b - 4
C) a - 2, 4, 5, b - 3 D) a - 1, 3, 4, b - 5
3. Alovuddin Muhammad Talos vodiysida qoraxitoylarni mag'lubiyatga uchratgan yilda qaysi shahar aholisi xorazmshohga qarshi qozg'olon ko'targan?
A) Buxoro B) Samarqand C) Toshkent
D) O'tror
4. Quyidagi qaysi Buxoro hukmdori davrida mustaqil Qo'qon xonligiga asos solingan?
A) Subxonqulixon B) Abulfayzxon
C) Ubaydullaxon II D) Abdulazizxon
5. Qo'qon xonligida Norbo'tabiy(a), Buxoro xonligida Subxonqulixon(b) hukmronligidan so'ng taxtga kelgan hukmdorlarni belgilang.
1. Erdonabiy. 2. Olimxon. 3. Abdulazizxon.
4. Ubaydullaxon II.
A) a - 2, b - 3 B) a - 1, b - 3 C) a - 1, b - 4
D) a - 2, b - 4
6. Qaysi Xiva xoni davrida qozoq cho'llarining Rossiya imperiyasi va Xiva xonligi o'rtasida bir-birini ajratib turuvchi hudud bo'lib qolishi uchun astoydil harakat qilingan?
A) Sherg'ozixon B) Olloqulixon
C) Rahimqulixon D) Muhammad Rahimxon I
7. O'rta asrlarda hukmronlik qilgan quyidagi davlatlarni barham topgan davriga qarab xronologik tartibda joylashtiring.
1. Somoniylar. 2. Qoraxoniylar. 3. Safforiylar.
4. G'aznaviylar.
A) 1, 4, 2, 3 B) 3, 1, 4, 2 C) 1, 2, 3, 4
D) 3, 1, 2, 4
8. XIX asrning 80-yillarida bo'lib o'tgan qaysi voqealar Xiva xonligining Chor Rossiyasiga siyosiy qaramligini yanada kuchaytirdi?
1. Kaspiyorti temiryo'lini qurilishi 2. Amudaryo flotiliyasini qurilishi 3. Amudaryo bo'limini ochilishi 4. Xiva xonini nazorat qilish maqsadida 7 kishidan iborat kengash tuzilishi
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 3, 4 D) 2, 4
9. Konstantin Petrovich fon Kaufman Turkiston general-gubernatorligini boshqargan yillar oralig'ida Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan shaharlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
1. Jizzax; 2. Samarqand; 3. Xiva; 4. Namangan;
5. Xo'jand; 6. Urgut; 7. Kattaqo'rg'on; 8. Kushka;
9. Andijon
A) 2, 3, 4, 6, 7, 9 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6
C) 2, 5, 6, 7, 8, 9 D) 1, 3, 5, 7, 8, 9
10. O'zbekistonda 1925-yil dekabrda boshlangan yer-suv islohoti qanday shior ostida o'tgan?
A) Qishloqda asosiy kuch bo'lgan o'rtahol dehqon bilan aloqani mustahkamlash
B) O'rtahol va boy dehqonlarni sinf sifatida tugatish
C) Qishloq aholisini yoppasiga jamoalashtirish (kolxozlashtirish)
D) Yersiz va kam yerli dehqonlarni birlash - tiruvchi "Qo'shchi" uyushmasini tuzish
11. Quyidagi hududlarni bog'lab turgan gaz quvurlarini ular barpo etilgan sanalari bilan mos ravishda to'g'ri berilgan javobni toping.
1. Muborak-Toshkent-Chimkent-Bishkek-Almati;
2. Jarqoq-Buxoro-Samarqand-Toshkent;
a) 1961-1963-yillar; b) 1958-1960-yillar;
c) 1970-1972-yillar; d) 1964-1966-yillar
A) 1 - a, 2 - b B) 1 - d, 2 - b C) 1 - c, 2 - a
D) 1 - d, 2 - c
12. Quyidagilarni yillari bilan moslashtiring.
1. "Jamoalashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida"gi O'zbekiston hukumatining qarori qabul qilindi. 2. VKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosining o'qituvchilar safini tozalash to'g'risidagi qarori qabul qilindi. 3. VKP(b) MQning "Partiyaning adabiyot sohasidagi siyosati to'g'risida" nomli qarori qabul qilindi.
a) 1933-yil; b) 1925-yil; c) 1930-yil
A) 1 - a, 2 - b, 3 - c
B) 1 - b, 2 - a, 3 - c
C) 1 - c, 2 - a, 3 - b
D) 1 - c, 2 - b, 3 - a
13. O'zbekistonda "Fayzifilm" xususiy kinostudiyasi qachon ro'yhatga olingan?
A) 1992-yil B) 1991-yil C) 1993-yil
D) 1999-yil

14. Quyidagi qaysi siyosiy partiyalar bir yilda tashkil etilgan?

- A) O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi.
- B) O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston liberal demokratik partiyasi
- C) O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi
- D) O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston liberal demokratik partiyasi

15. Quyida keltirilgan adiblarni ularni asarlari bilan to'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

- 1. Hojiakbar Shayxov; 2. Nazar Eshonqulov; 3. Omon Muxtor; 4. To'lepbergen Qayipbergenov;
- A) "To'rt tomon qibla"; B) "U dunyoga, bobomga xat"; C) "Tutash olamlar"; D) "Qora kitob"

- A) 1 - c, 2 - a, 3 - d, 4 - b
- B) 1 - c, 2 - d, 3 - a, 4 - b
- C) 1 - a, 2 - d, 3 - b, 4 - c
- D) 1 - b, 2 - c, 3 - a, 4 - d

16. Yunonistonda Finikiya alifbosiga asoslangan yangi yozuv vujudga kelgan davrda Italiyada bo'lib o'tgan voqeani belgilang?

- A) Rimda Respublika boshqaruvi joriy etildi.
- B) Etrusklar 12 ta shahar - davlatlar ittifoqini tuzishdi.
- C) Rimning barcha fuqarolari mavqeidan qat'iy nazar teng, deb hisoblanadigan qonunlar qabul qilindi.
- D) Rim butun Italiyani zabt etishga erishdi.

17. Ahamoniy hukmdor Kir II davrida qaysi hududlar bo'ysundirilgan?

- 1. Midiya. 2. Misr. 3. Bobil. 4. Frakiya. 5. Lidiya. 6. Armaniston 7. Falastin. 8. Finikiya
- A) 2, 3, 4, 5, 6, 7 B) 1, 2, 3, 4, 6, 8
- C) 1, 3, 5, 6, 7, 8 D) 2, 4, 5, 6, 7, 8

18. O'rta asrlarda Yevropada monastrlar (a) va daryo sohillari bo'ylarida, ko'priklar yonida (b) barpo etilgan shaharlarni belgilang.

- 1. Sen Denu. 2. Bryugge. 3. Padeborn.
- 4. Sveybryukken. 5. Myunster. 6. Sen-Gallen.
- 7. Bremen

- A) a - 2, 4, 6, 7 va b - 1, 3, 5
- B) a - 1, 6, 7 va b - 2, 3, 4, 5
- C) a - 1, 5, 6 va b - 2, 3, 4, 7
- D) a - 2, 3, 4, 6 va b - 1, 5, 7

19. O'rta asrlarda salib yurishlarida qatnashgan hukmdorlarni toping.

- A) Karl VII, Genrix II
- B) Richard I Sheryurak, Lyudovik IX
- C) Otton III, Richard II
- D) Karl V, Lyudovik XI

20. XIX asr 2-yarmida qaysi davlatda "Gomstedlar to'g'risida" qonun qabul qilingan?

- A) AQSH B) Buyuk Britaniya C) Fransiya
- D) Germaniya

21. Quyidagi berilgan safaviy hukmdorlarni ular hukmronlik qilgan yillariga qarab xronologik tartibda joylashtiring.

- 1, Taxmasp II; 2. Abbos I; 3. Ismoil Safaviy; 4. Sulton Husayn
- A) 2, 3, 1, 4 B) 3, 2, 4, 1 C) 1, 2, 3, 4,
- D) 3, 2, 1, 4

22. XIX asr oxiri XX asr boshlarida ilm-fan taraqqiyotida kimning kashfiyoti azotli bo'yoqlar deb atalgan bo'yoqlarning katta bir sinfini hosil qilishga imkon bergan?

- A) V.Grinyar B) P.Griss C) Lui Paster
- D) T.Shvan

23. Quyidagi voqealarni xronologik tartibda joylashtiring.

- 1. Shimoliy Xitoyda birinchi temir yo'l qurildi.
- 2. AQSH davlat kotibi Xeyning "ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar" siyosati e'lon qilindi. 3. Xitoy va Yaponiya o'rtasida Simonoseku sulhi tuzildi.
- A) 3, 1, 2 B) 1, 2, 3 C) 1, 3, 2 D) 3, 2, 1

- 24.** Quyidagi davlatlarni konstitutsiyalar qabul qilingan yillari mos ravishda belgilang.
1. Turkiya. 2. Xitoy. 3. Avstriya-Vengriya.
4. Yaponiya.
a) 1889-yil; b) 1914-yil; c) 1876-yil; d) 1867-yil
A) 1 - b, 2 - c, 3 - d, 4 - a
B) 1 - c, 2 - b, 3 - a, 4 - d
C) 1 - a, 2 - c, 3 - d, 4 - b
D) 1 - c, 2 - b, 3 - d, 4 - a
- 25.** Kubada Mehnat vazirligi qaysi prezident davrida tuzilgan?
A) Menokal B) Karlos de Sespedes
C) San Martin D) X. Machado
- 26.** Ikkinchi jahon urushi yillarida Fashistlar Germaniyasining harbiy harakatlari tufayli 1940-yilning aprel-may oylarida bo'ysundirilgan davlatlarning ketma-ketligi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
1. Belgiya; 2. Daniya va Norvegiya; 3. Gollandiya
A) 2, 1, 3 B) 2, 3, 1 C) 3, 1, 2 D) 1, 2, 3
- 27.** Ikkinchi jahon urushi davrida ittifoqchi davlat rahbarlari ishtirokidagi konferensiyalar va ularda ko'rilgan masalalar mos ravishda joylashtirilgan javobni belgilang.
1. Tehron konferensiyasi. 2. Qrim konferensiyasi.
3. Potsdam konferensiyasi.
a) Yevropada ikkinchi frontni ochish masalasi.
b) "Ozod Yevropa to'g'risida deklaratsiya" e'lon qilindi. c) Asosiy jinoyatchilarni xalqaro tribunalga berish.
A) 1 - c, 2 - a, 3 - b B) 1 - c, 2 - b, 3 - a
C) 1 - a, 2 - c, 3 - b D) 1 - a, 2 - b, 3 - c
- 28.** 2004-yilda Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatni toping.
A) Daniya B) Finlandiya C) Vengriya
D) Ispaniya
- 29.** AQSH prezidenti Richard Nikson davrida og'ir iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun qanday choralar ko'rilgan?
1. Ish haqi va narxlar muzlatildi; 2. Ishchilar soni kamaytirildi; 3. Ijtimoiy to'lovlar kamaytirildi;
4. Davlat xarajatlari kamaytirildi; 5. Dollarni oltinga almashtirish vaqtincha to'xtatildi;
6. Harbiy xarajatlar kamaytirildi; 7. Mamlakatga olib kelingan tovarlar uchun 10 foizlik to'lovlar joriy etildi; 8. Chet el tovarlariga bojxona to'lovlari bekor qilindi
A) 1, 4, 5, 7 B) 1, 2, 6, 8 C) 3, 4, 5, 8
D) 2, 3, 6, 7

- 30.** Quyidagilarni yillari bilan moslang.
1. Yevropaning olti davlati ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasini tuzdi. 2. Yevropa Kengashi tashkil etildi. 3. Yevropa liderlari Fransiya, Italiya va Ispaniya yangi O'rtayer dengizi ittifoqi tashkiloti tuzilganligini e'lon qildilar.
4. Yevropa Hamjamiyatining a'zolari qurolli kuchlarni tuzish haqida qaror qabul qildilar.
a) 1999-yilda; b) 1951-yilda; c) 1949-yilda;
d) 2007-yilda
A) 1 - a, 2 - b, 3 - d, 4 - c
B) 1 - b, 2 - c, 3 - a, 4 - d
C) 1 - a, 2 - c, 3 - d, 4 - b
D) 1 - b, 2 - c, 3 - d, 4 - a

TO‘G‘RI JAVOBLAR

№	Javob		№	Javob		№	Javob	
1	A		11	B		21	B	
2	B		12	C		22	B	
3	D		13	A		23	C	
4	C		14	A		24	D	
5	D		15	B		25	C	
6	D		16	B		26	B	
7	D		17	C		27	D	
8	A		18	C		28	C	
9	A		19	B		29	A	
10	A		20	A		30	D	